

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRISH UCHUN NOMZODLARNI MAQSADLI  
TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyulda PQ-3151-sod qaroriga muvofiq hamda oliy ta'lismuassasalariga kirish uchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning tegishli mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lismuassasalarida o'qishni davom ettirishlari uchun zarur va yetarli bo'lgan, chuqurlashtirilgan nazari va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan mavjud akademik litseylarning faoliyati kompleks tahlil qilinganligi, moddiy-texnika bazasi xatlovdan o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining:

o'tkazilgan kompleks tahlil va xatlov yakunlari bo'yicha aniqlangan o'quv-metodik va moddiy-texnika bazasi zamonaqiy talablarga javob bermaydigan, oliy ta'lismuassasalaridan uzoqda joylashgan, ta'lismifati va bitiruvchilarning oliy ta'lismuassasalariga kirish ko'rsatkichlari past bo'lgan **1- ilovada** ko'rsatilgan akademik litseylarning 2018/2019 o'quv yilidan boshlab o'quvchilarni qabul qilishni to'xtatishi va 2019-yil 1-sentabrdan boshlab faoliyatini tugatishi to'g'risidagi;

yuqori ilmiy va pedagogik salohiyatga, yetarli moddiy-texnika bazaga ega bo'lgan akademik litseylarni **2- ilovaga** muvofiq oliy ta'lismuassasalarini tasarrufiga berish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

2017/2018 o'quv yilidan boshlab akademik litseylarda o'qish muddati ikki yil etib belgilanadi va ularga o'quv-metodik jihatdan rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lismazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

akademik litseylardan uzoq joylashgan hududlardan qabul qilingan o'quvchilar belgilangan tartibda yotoqxona hamda ota-onalar to'lovi hisobiga (har oyda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida) xarajatlarni qisman qoplagan holda, imtiyozli oziq-ovqat bilan ta'minlanadilar;

*(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PF-5894-sodli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-sod)*

2018/2019 o'quv yilidan boshlab o'quvchilar qabuli to'xtatilayotgan akademik litseylarning 2 va 3-bosqich o'quvchilari mazkur akademik litseylarda ta'lismi amaldagi o'quv dasturlari bo'yicha belgilangan tartibda yakunlaydilar va ularga davlat namunasidagi akademik litsey bitiruvchisi diplomi beriladi;

akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Oliy ta'lismuassasalarini pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazlarida amalga oshiriladi;

faoliyati tugatiladigan akademik litseylarning bino va inshootlari, yer maydonlari, birinchi navbatda, amalda biriktirilgan oliy ta'lismuassasasiga, oliy ta'lismuassasasida ehtiyoj mavjud bo'lmagan hollarda tegishli tuman (shahar)lar hokimliklariga operativ boshqaruv huquqi asosida beriladi;

akademik litseylar samarali faoliyat ko'rsatishi, ulardagagi o'qitish sifatini ta'minlash hamda ular moddiy-texnika bazasi va yuqori malakali o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlanganligi, ta'limgartarbiya jarayoni ustidan nazorat qilinishi, bitiruvchilarning oliy ta'lismuassasalariga o'qishga kirishi

ko'rsatkichlarini to'liq ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyat tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlariga yuklanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinnbosari — O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi direktori M. Xolmuxamedov:

bir oy muddatda faoliyati tugatiladigan **1-ilovadagi** akademik litseylarning bino va inshootlari, yer maydonlari va boshqa barcha moddiy-texnika boyliklarini (keyingi o'rinnlarda moddiy boyliklar deb ataladi) to'liq inventarizatsiyadan o'tkazsin hamda ularni ro'yxat asosida har bir ta'lim muassasasi kesimida moddiy javobgar shaxslarga o'rnatilgan tartibda biriktirsin;

moddiy javobgar shaxslarning o'zlariga biriktirilgan moddiy boyliklarni o'rnatilgan tartibda topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida rasmiylashtirilguniga qadar but va soz saqlanishini ta'minlash choralarini ko'rsin va ular faoliyati bo'yicha shaxsan mas'ul etib belgilansin.

5. Oliy ta'lim muassasalari rahbariyatiga oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari (to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushumlarning faqat to'lov-kontrakt miqdorining oshirilgan qismi) hisobidan akademik litseylar uchun o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sarflash materiallari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari sotib olish hamda akademik litseylarning o'qituvchi va o'quvchilarini moddiy qo'llab-quvvatlash huquqi berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I. Majidov ikki oy muddatda:

Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda akademik litseylarga umumta'lim maktablarining eng bilimli, qobiliyatli va iqtidorli o'quvchilarini tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kirtsin. Nizomda respublikaning malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilayotgan hududlaridan o'quvchilarni oliy ta'lim muassasalariga kirishga maqsadli tayyorlash uchun imtiyozli qabul qilish, shuningdek akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga kira olmasligi darajasiga muvofiq (foiz ko'rsatkichlariga mos ravishda) akademik litseyni tasarrufiga olgan oliy ta'lim muassasasi rektori, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo'yicha prorektori, akademik litsey direktori va mas'ul xodimlariga o'rnatilgan tartibda jarima qo'llanilishi hamda ularning oylik maoshlaridan chegirib qolinishi nazarda tutilsin;

akademik litseylarning o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirligini va idoralar bilan hamkorlikda akademik litsey o'qituvchilarining yetakchi oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirishini samarali tizimini, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarini jalb etgan holda tashkil etsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyati tugatiladigan akademik litseylarning ishdan bo'shaydigan o'qituvchilarini va xodimlarini belgilangan tartibda ishga joylashtirish choralarini ko'rsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda "Maorif" sohasiga yo'naltirilgan mablag'lari doirasida ushbu qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun zarur mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 2017-yil 24-yanvardagi PQ-2738-son **qaroriga 3-ilovaga** muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazarat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi A.N. Yunusxodjayev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 26-sentabr,  
PQ-3290-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-son qaroriga  
1-ILOVA

**2018/2019 o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilar qabuli to‘xtatiladigan va 2019-yil 1-sentabrdan  
boshlab faoliyati tugatiladigan akademik litseylar**

**RO‘YXATI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**I. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

1. O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Zangiota akademik litseyi.
2. O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey.
3. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Angren akademik litseyi.
4. Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi 5-son akademik litsey.
5. Toshkent moliya instituti qoshidagi Moliya akademik litseyi.
6. Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi akademik litsey.
7. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyi.
8. Andijon davlat universiteti qoshidagi Asaka akademik litseyi.
9. Andijon davlat universiteti qoshidagi 4-son akademik litsey.
10. Buxoro muhandislik texnologiya instituti qoshidagi Qorovulbozor 2-son akademik litseyi.
11. Guliston davlat universiteti qoshidagi Yangiyer akademik litseyi.
12. Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi Bo‘ston akademik litseyi.
13. Qarshi davlat universiteti qoshidagi Shahrисabz akademik litseyi.
14. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshidagi 3-son akademik litsey.
15. Namangan davlat universiteti qoshidagi 3-son akademik litsey.
16. Namangan muhandislik qurilish instituti qoshidagi To‘raqo‘rg‘on akademik litseyi.
17. Namangan muhandislik qurilish instituti qoshidagi 2-son akademik litsey.
18. Namangan muhandislik qurilish instituti qoshidagi Norin akademik litseyi.
19. Namangan muhandislik texnologiya instituti qoshidagi 2-son akademik litsey.
20. Samarqand davlat universiteti qoshidagi Urgut shahar 3-son akademik litsey.
21. Samarqand davlat chet tillar instituti qoshidagi 2-son akademik litsey.
22. Termiz davlat universiteti qoshidagi Denov 3-son akademik litseyi.
23. Farg‘ona politexnika instituti qoshidagi Marg‘ilon akademik litseyi.
24. Farg‘ona politexnika instituti qoshidagi So‘x akademik litseyi.
25. Navoiy davlat pedagogika instituti qoshidagi kompyuter va axborot texnologiyalari akademik litseyi.
26. Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi Amudaryo 3-son akademik litseyi.
27. Qo‘qon davlat pedagogika instituti qoshidagi Rishton akademik litseyi.
28. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi.
29. Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali qoshidagi To‘rtko‘l akademik litseyi.
30. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti qoshidagi 2-son akademik litsey.
31. Andijon qishloq instituti qoshidagi 3-son akademik litsey.

**III. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**

32. Toshkent pediatriya tibbiyat instituti Nukus filiali qoshidagi akademik litsey.
33. Buxoro davlat tibbiyat instituti qoshidagi G‘ijduvon 2-son akademik litseyi.

**IV. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini  
rivojlantirish vazirligi**

34. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mirzo Ulug‘bek akademik litseyi.

**V. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati**

35. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti qoshidagi 2-sod akademik litsey.

**VI. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi**

36. Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi Zarafshon akademik litseyi.

37. Navoiy davlat konchilik institutining Olmaliq filiali qoshidagi akademik litsey.

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdaggi PF-5497-soni Farmoni tahririda)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-soni qaroriga  
2-ILOVA

**Oliy ta’lim muassasalari tasarrufiga beriladigan akademik litseylar**

**RO‘YXATI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Oliy ta’lim muassasasi nomi	Oliy ta’lim muassasasiga berilayotgan akademik litseyning nomi*
<b>1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi</b>		
1.	Toshkent islom universiteti	Toshkent islom universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi
<b>2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi</b>		
2.	O‘zbekiston Milliy universiteti	O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.X. Sirojiddinov akademik litseyi
3.	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 2-sod akademik litsey
4.	Toshkent davlat texnika universiteti	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Kompyuter texnologiyalari akademik litseyi
5.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi
6.	Toshkent moliya instituti	Toshkent moliya instituti qoshidagi 2-sod akademik litsey
7.	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litsey
8.	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi
9.	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litsey
10.	Toshkent davlat pedagogika universiteti	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi 2-sod akademik litsey
11.	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 3-sod akademik litsey
12.	Andijon mashinasozlik instituti	Andijon mashinasozlik instituti qoshidagi 2-sod akademik litsey
13.	Andijon davlat universiteti	Andijon davlat universiteti qoshidagi akademik litsey
14.	Buxoro davlat universiteti	Buxoro davlat universiteti qoshidagi Qorako‘l 3-sod akademik litsey
15.	Buxoro muhandislik texnologiya instituti	Buxoro muhandislik texnologiya instituti qoshidagi 1-sod akademik litsey
16.	Guliston davlat universiteti	Guliston davlat universiteti qoshidagi Guliston akademik litseyi
17.	Jizzax politexnika instituti	Jizzax politexnika instituti qoshidagi akademik litsey
18.	Qoraqalpoq davlat universiteti	Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi Nukus 1-sod akademik litseyi

19.	Qarshi davlat universiteti	Qarshi davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey
20.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshidagi "Nuriston" akademik litseyi
21.	Namangan davlat universiteti	Namangan davlat universiteti qoshidagi akademik litsey
22.	Namangan muhandislik qurilish instituti	Namangan muhandislik qurilish instituti qoshidagi Do'stlik akademik litseyi
23.	Namangan muhandislik texnologiya instituti	Namangan muhandislik-texnologiya instituti qoshidagi 1-son akademik litsey
24.	Samarqand davlat universiteti	Samarqand davlat universiteti qoshidagi 1-son akademik litsey
25.	Samarqand davlat chet tillari instituti	Samarqand davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey
26.	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi akademik litsey
27.	Termiz davlat universiteti	Termiz davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey
28.	Farg'ona davlat universiteti	Farg'ona davlat universiteti qoshidagi 3-son akademik litsey
29.	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi	Farg'ona politexnika instituti qoshidagi Yormozor akademik litseyi
30.	Urganch davlat universiteti	Urganch davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey
31.	Toshkent davlat texnika universitetining Termiz filiali	Termiz davlat universiteti qoshidagi Termiz akademik litseyi
32.	Navoiy davlat pedagogika instituti	Navoiy davlat pedagogika instituti qoshidagi akademik litsey
33.	Nukus davlat pedagogika instituti	Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi Nukus akademik litseyi
34.	Jizzax davlat pedagogika instituti	Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi "Sayiljoy" akademik litseyi
35.	Qo'qon davlat pedagogika instituti	Qo'qon davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-son akademik litsey
36.	Chirchiq davlat pedagogika instituti	Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi Chirchiq akademik litseyi

### 3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

37.	Toshkent tibbiyot akademiyasi	Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litsey
38.	Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali qoshidagi akademik litsey
39.	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi
40.	Toshkent farmatsevtika instituti	Toshkent farmatsevtika instituti qoshidagi akademik litsey
41.	Toshkent davlat stomatologiya instituti	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 2-son akademik litsey
42.	Andijon davlat tibbiyot instituti	Andijon davlat tibbiyot instituti qoshidagi akademik litsey

43.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	Buxoro davlat tibbiyot instituti qoshidagi 1-son akademik litsey
44.	Samarqand davlat tibbiyot instituti	Samarqand davlat tibbiyot instituti qoshidagi 1-son akademik litsey

#### **4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

45.	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi “Interneyshenl-Xaus” Toshkent akademik litseyi
46.	Toshkent davlat agrar universiteti	Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Qibray akademik litseyi
47.	Toshkent davlat agrar universitetining Nukus filiali	Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi 4-son Chimboy akademik litseyi
48.	Toshkent davlat agrar universitetining Andijon filiali	Toshkent davlat agrar universitetining Andijon filiali akademik litseyi
49.	Samarqand veterinariya meditsinasi instituti	Samarqand veterinariya meditsinasi instituti akademik litseyi

#### **5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi**

50.	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi iqtidorli bolalar akademik litseyi
51.		R.M. Glier nomidagi Respublika musiqaga ixtisoslashtirilgan akademik litseyi
52.		V. Uspenskiy nomidagi Respublika musiqaga ixtisoslashtirilgan akademik litseyi

#### **6. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**

53.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey
54.	Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali	Qarshi davlat universiteti qoshidagi 1-son akademik litsey
55.	Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali	Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi Nukus 3-son akademik litseyi
56.	Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi 2-son akademik litsey
57.	Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg‘ona filiali	Farg‘ona davlat universiteti qoshidagi Farg‘ona akademik litseyi
58.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali qoshidagi 1-son akademik litsey

#### **7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

59.	Toshkent davlat yuridik universiteti	Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litsey
-----	--------------------------------------	----------------------------------------------------------------

#### **8. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi**

60.	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi
-----	------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------

#### **9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi**

61.	Toshkent arxitektura va qurilish instituti	Toshkent arxitektura qurilish instituti qoshidagi akademik litsey
62.	Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti	Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti qoshidagi 1-son akademik litsey

#### **10. O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi**

63.	Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurilish va ekspluatatsiyasi instituti	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi
-----	----------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------

### **11. “O‘zbekiston temir yo’llari” aksiyadorlik jamiyatি**

64.	Toshkent temir yo'llari muhandislari instituti	Toshkent temir yo'l muhandislari instituti qoshidagi Mirobod akademik litseyi
-----	------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------

### **12. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi**

65.	Navoiy davlat konchilik instituti	Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi 2-som akademik litsey
-----	-----------------------------------	-------------------------------------------------------------------

### **13. Xorijiy oly ta'lim muassasalari filiallari**

66.	Toshkent shahridagi I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali	Toshkent shahridagi I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali qoshidagi akademik litsey
67.	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti qoshidagi akademik litsey
68.	Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti	Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi akademik litsey

\* Akademik litseylarning nomlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasarrufiga berilayotgan oly ta’lim muassasalari tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.

Izoh: Harbiy yo‘nalishdagi akademik litseylar: harbiy-qurilish yo‘nalishdagi Samarqand akademik litseyi, harbiy texnika yo‘nalishdagi Farg‘ona akademik litseyi va harbiy yuridik yo‘nalishdagi Urganch akademik litseyi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufiga, harbiy telekommunikatsiya yo‘nalishdagi Toshkent akademik litseyi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san‘at akademik litseyi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufiga berilgan.

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagagi PQ-4975-som qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 07/21/4975/0085-som)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-somli qaroriga asosan 2019-yil 1-avgustdan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2019-y., 07/19/4375/3424-som)

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.09.2017-y., 07/17/3290/0018-som; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2019-y., 07/19/4375/3424-som; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-som; 04.02.2021-y., 07/21/4975/0085-som)*